

Fayziyeva Komila Axrorovna.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti
e-mail:komila.fayziyeva.85@bk.ru
Тел.+998903148448

UO‘K 384.5

**ROMANTIKLAR KLASSISIZMNING UCH BIRLIK (VAQT,
MAKON, QAHRAMON) BIRLIGI TAMOYILI.**

Annotatsiya. Novella muallifining ta’kidlashicha sevgining fojialari, qizning go’zallik bilan faxrlanib, yigitga mensimay qarash, o’zbekcha aytganda noz-karashmalari sodda va sofdil, mehnatkash, kamtarin Ejenga ijtimoiy tengsizlikdek, qizning undan yuz o’girib, boshqa yigitlar bilan do’stlashuvi kambag’alligi sababidek ko’rinadi. Novella syujetidagi lirizm o’quvchida sofdil yigit Ejenga nisbatan mehr va hamdardlik uyg’otadi.

Kalit so’zlar: romantizm ruhi tug’ilishi, eski dunyo, chuqur psixologizm, chuqur va qudratli ruh, changalzor o’rmonlar.

Файзиева Комила Ахроровна.

Университет экономики и педагогики доцент.

**ПРИНЦИП ТРЕХЕДИНОГО (ВРЕМЯ, ПРОСТРАНСТВО, ГЕРОЙ)
ЕДИНСТВА РОМАНТИЧЕСКОГО КЛАССИЦИЗМА.**

Аннотация: Автор повести указывает, что трагедии любви, гордость девушки своей красотой и презрение к мальчику, её флирт, по узбекскому выражению, прост и честен, трудолюбив и скромен Эжен, подобен социальному неравенству, девочка отворачивается от него и дружит с другими мальчиками, видимо, это причина бедности. Лиризм сюжета повести заставляет читателя почувствовать любовь и симпатию к честному юноше Эжен.

Ключевые слова: рождение духа романтизма, старого мира, глубокого психологизма, глубокого и могучего духа, дремучих лесов.

Fayziyeva Kamila Axrorovna.

Economics and pedagogy University Associate professor.

THE PRINCIPLE OF THE TRIUNE (TIME, SPACE, HERO) UNITY OF ROMANTIC CLASSICISM.

Annotation. The author of the novella points out that the tragedies of love, the girl's pride in her beauty and contempt for the boy, her flirtations, in Uzbek terms, are simple and honest, hard-working and modest Ejen, are like social inequality, the girl turns away from him and makes friends with other boys appears to be the cause of poverty. The lyricism in the plot of the novella makes the reader feel love and sympathy for the honest young man Ejen.

Keywords: the birth of the spirit of romanticism, the Old World, deep psychologies, a deep and powerful spirit, jungle forests.

Kirish

Ma'lumki, Angliya va Amerika adabiyotida romantizm bilimdonlaridan A.Zveryov yozishicha, Vashington Irving novellasi qahramoni Rip van Vinkl hamma tinch, osoyishta, shovqin-suronsiz yashagan golland gubernatorlari davrini orzu qilar edi. U 20 yillik uyqudan uyg'onib, tog'dan uyiga qaytganida eski do'stlari qolmagan, hamma yangilar "siyosiy nizo, janjallar, jang-u jadallar bilan ovvora bo'lib tinchligi yo'qolgan, ishbilarmonlar, tadbirkorlar, fermerlar faqat ko'p foyda olishni o'ylayotgan edi. A.Zverev yozishicha, "Arvoh yashayotgan uy" novellasi qahramoni Dolf Xayliger ham o'z baxtini sobiq bolaligi, olmon shifokori, turli aldovlar bilan boy mulk yig'uvchi Kniperxauzen teng mol-mulk egasi bo'lishda deb biluvchi oddiy olimga aylanadi. Faqat moddiy boylik topishga qiziquvchilar ma'naviy hayotda tubanlashib qoladi".[1]

Adabiyotlar tahlili

Arastu baxtli tole' deganida insonning o'ziga bog'liq bo'lmagan baxt-saodatni ma'rifatli oilada, obod, farovon vatanda tug'ilish, baquvvat, chiroyli bo'lish Insonga bog'liq baxt-saodat, bilim olish, mehnatsevarlik, kamtarinlikni hisobga olgan. [2]

Vashington Irving novellasining qahramoni Dolf Xayliger jasurligi, arvoh bilan uchrashuvdan qo'rqmasligi, u tushgan kema dengiz bo'ronida pachoqlanib, cho'kib ketganida Dolf suzishini yaxshi bilgani uchun omon qolib, arvohning avlodi bilan uchrashuvi, arvoh berkitgan xazinani topishi baxt keltiradi.

Irving ko'pchilik novellalari syujetida adabiy qahramonlarini satira va yumor ohangida tasvirlasa, "Annet Delarbr"da syujet va xarakterlarni lirizm bilan tasvirlaydi. Bu novellada lirizm asarning sevgi mavzusida bo'lishi bilan birga, Sena daryosi va dengiz qirg'og'idagi fransuzlarning tinch, sokin bir qishlog'ida yashovchilarda ijtimoiy tenglik, insonparvarlik, xalqchillik mavjudligini ham ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Vashington Irving ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri, xususan, uning romantik asarlarinining tarixiyligi va badiiyligining o'ziga xos jihatlari tahlil etilishi, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar o'zbek adabiyoti uchun eng muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi, qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi, tarjima, adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan.

Tahlillar va natijalar

Novella muallifining ta'kidlashicha sevgining fojialari, qizning go'zallik bilan faxrlanib, yigitga mensimay qarash, o'zbekcha aytganda noz-karashmalari sodda va sofdil, mehnatkash, kamtarin Ejenga ijtimoiy tengsizlikdek, qizning undan yuz o'girib, boshqa yigitlar bilan do'stlashuvi kambag'alligi sababidek

ko‘rinadi. Novella syujetidagi lirizm o‘quvchida sofdil yigit Ejenga nisbatan mehr va hamdardlik uyg‘otadi. Asar qizning nomi bilan (Annet) atalsa-da, uni sevgan yigit Ejenga xarakteri, ruhiy olami, ko‘ngil tozaligi-sofdilligi oldingi o‘ringa chiqadi. Novellada Fransiya va Angliya o‘rtasida boshlangan urushni qoralash g‘oyasi ham mavjud. Amerika adibi Vashington Irving bu novella syujetiga adabiy qahramonlari Ejen va Annetning sevgisi urush sinovlaridan ham o‘tishi juda qisqa tasvirlanadi. Novellada yolg‘iz onaning yolg‘iz o‘g‘li urushga ketishi ona uchun og‘ir musibat edi, – deydi yozuvchi. Ejen yolg‘iz onaning baxti, suyanchig‘i edi. “Bu urush, qirg‘inlar Fransiya yoshlarini o‘z domiga tortib, fransuz onalariga qayg‘u, kulfat keltirgan. Qiz hali endi 15ga to‘lgan, u Ejendan butunlay ajralib qolishi mumkinligiga unchalik aqli yetmas edi. Qiz xayrlashayotganida o‘zining chiroyli sochlaridan bir necha tolasini yigitning qo‘li, barmoqlariga o‘rab qo‘ydi. Oradan haftalar, oylar, yillar o‘tdi. Annet boy mulkdor otasining soyasida qishloqda eng birinchi sohibjamol, go‘zalga aylandi. Unga uylanishni orzu qilganlarning son-sanog‘i yo‘q edi.

Lekin Annet go‘zalligi bilan faxrlansada, sevgiga vafodor bo‘lib, Ejenning onasiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatar edi. Beva ayol urushdan o‘g‘li yuborayotgan xatlarini qizga, (bo‘lg‘usi keliniga) ko‘rsatar edi. Qiz bu xatlarda o‘zi haqida maqtovlarni o‘qib, uyalib, yuzi qizarar edi .

Vashington Irving novellada fransuz yigitning urushda tortgan mashaqqatlarini ixcham, qisqa bayon qiladi. Ejen urushda ko‘p jasorat ko‘rsatsada, unga birorta mukofot bermaydi. Ejen urushdan mukofotdan muhimroq jasurlik, kuch-g‘ayrat, sofdillik, kamtarinlikni yo‘qotmay olib keldi. Yozuvchining bu so‘zlaridan anglaymizki, urush qirg‘inlarda ham beshliklar sofdil yigitga emas, balki boylarning bolalariga, tanish-bilishlarga mukofot va unvonlar bergan. Asarda sofdil yigit Ejenni unvonlar qiziqmaganligini ko‘rish mumkin. [4]

Adib tasvirlashicha, sodda, sofdil, jasur yigit Ejen sevgilisi Annetning go‘zal qizlarga xos kibr–u havosini, yigitni mensimasligini adib, chuqur lirizm bilan tasvirlaydi.

Yozuvchi novellada qizning sevgilisi kema halokatida o'lgan xabarini eshitib, hushidan ketganini, ruhiy dardga uchraganini, otasi va shifokorlar qizni sog'ayishi uchun qilgan xatti-harakatlarini tasvirlashda ham lirizm ohangida, odamiylik tuyg'usi tovlanishlarini ko'rsatadi. Vashington Irving boshqa novellalarida ko'p qo'llangan kinoya, hajv, detektiv asarlarga xos sir saqlash, faqat moddiy foydaga intiluvchi odamlarning tubanligini fosh etish, so'z o'yinlarini bu novellada qo'llamaydi. Bizningcha, yozuvchi "Annet Delarbr" novellasida adabiy qahramonlarining ruhiy olamini ochishda, ruhiy tahlil-psixoanaliz ustasi sifatida ko'rinadi.

Lev Tolstoy "Hujum" hikoyasida Kavkaz ortida yashovchi ozod, erkin xalqlarni olish uchun Rossiya imperatori tomonidan boshlangan urushni qoralaydi. Yozuvchi Rossiya qishloqlarida dehqonchilik qilayotgan baquvvat yigitlar qirilib ketayotganini, qishloqda yolg'iz qolgan qariya onasi o'g'lini kutayotganini tasvirlaydi. Lev Tolstoy Qrimdagi urushlarda oddiy askar sifatida qatnashib, "Sevostopol hikoyalari"ni yozadi. Amerika adibasi Garriyet Bicher-Stou "Tom tog'aning kulbasi" romanida qoratanlilarga o'tkazilgan jabr-zulmni, irqchilikni qoralaydi.[5]

Vashington Irving XVII asr fransuz mutafakkiri Sharl Lui de Monteskyoning xotin qizlar ozodligi haqidagi "Fors maktublari"da ziyoli sayyoh o'zbek do'stlaridan biriga yozgan xatida bunday deydi "Fors ayollari fransuz ayollariga nisbatan chiroyliroq, fransuz ayollari esa fors ayollaridan mehrliroq. Fors ayolini sevish, fransuz ayoli bilan ko'ngilxushlik qilish yaxshi. Fors ayoli nafis va kamtarin, fransuz ayoli sho'x va quvnoq. Fors ayollari aroq-vino ichmaydi. Haramdagi osoyishta hayot, sog'lik uchun foydali. U yerda ko'ngilxushliklar ham kamtarona, martabasiga muvofiq, tartib bilan yashaydi. Mavqei baland ayollarning aytganiga bo'ysunadi. [4]

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, atoqli mutafakkir Ismoilbek Gasprinskiy fransuz mutafakkiri, qonunshunos, faylasuf Sharl de Monteskyoning "Fors

maktublari” asarlaridan ta’sirlanib, o’zi Fransiyada ko’rgan kechirganlarini eslab “Farangiston maktublari” asarini yozgan. I.Gasprinskiy bu asarida Turkiston, Qrim, Istambuldagi davlat tartiblaridan ancha ilg’or bo’lib, ilm-fan va ma’rifatda ko’p yutuqlarga erishgani haqida yozadi. “Farangiston maktublari” bosh qahramoni Abbos Faransaviy tili bilan hikoya qilinadi. Sayyoh Abbos otasidan yaxshi meros olgan, madrasada o’qigan, badavlat ziyoli yigit Odessada teatrga kirib, Istanbulda bir yosh vazirga dars berib qaytayotgan farang qizi Jozefina bilan tanishib qoladi. Jozefina Qrimlik yigitni o’zi turgan mehmonxonaga do’stona suhbatga taklif qiladi. “Jozefina mehmoni bo’lganim sababli meni siylashga harakat qildi... Totli sharbat, meva keltirib, Istanbul ahvoli to’g’risida ancha gapirdi. Turkiston borasida ham ko’p narsalar so’rab, ba’zi gaplarimni daftarchasiga yozib oldi. (Fransiyada, Arabistonda uchraydigan) suvsiz sahrolar, yo’lto’sar va qaroqchilar yo’qligi hamda qizlar, xotinlar bir o’lkadan ikkinchisiga bemalol boradilar, hech kimsa bir ziyon ko’rmaydi. Nizomlari, tartiblari (qonunlari) g’oyat mukammal, muntazamdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зверев А. Вашингтон Ирвинг. – М.: «Правда», 1985. – С. 4–5.
2. Арасту риторика. Арасту. Поэтика. Axloqi kabir. Ritorika. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2011. – В. 352 .
3. Ванслов В. Эстетика романтизма. – М.: «Искусства», 1960. – С. 37.
4. Ирвинг В. Новеллы. – М.: «Правда», 1985. – С. 95.
5. L.Tolstoy. Iqrornoma. Ozod Sharafiddinov tarjimasi. – Toshkent: “Ma’naviyat nashriyoti”, 1998. – В. 27–83.